



"Sisters" hikoyasi misolida Jeyms Joys uslubining badiiy jozibasi va uning tarjimada aks etishi

Raimboyeva O'g'iloy, Otaqo'ziyeva Shahribonu

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari

E-mail: raimboyevaogiloy@gmail.com

Tel: +9989501017461

Anotatsiya: Ushbu maqolada Jeyms Joysning “Sisters” hikoyasida tilning badiiy jozibasi, uslubiy o‘ziga xosliklari, shuningdek ularni boshqa tillardagi tarjimalarda o‘z ma’nolarini saqlab qolish masalalari yoritiladi. Asarda muallifning o‘ziga xos lingvistik uslubi, murakkab sintaktik tuzilmalari, ramziy ma’nolarga boy ifodalar va ichki monologlar tahlil markaziga olinadi. Tarjima jarayonida badiiy mazmun, ohang va ruh uyg‘unligini saqlash muhimligi ko‘rsatib beriladi. Qiyosiy tahlil orqali aslyat va tarjima o‘rtasidagi o‘zaro moslik, ma’no qatlamlari va uslubiy yechimlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jeyms Joys, Sisters, badiiy tarjima, lingvistik joziba, ma’no uyg‘unligi, uslub, ohang, ramziylik, tarjima muammolari.

Annotation: This article explores the artistic beauty of language in James Joyce’s short story “The Sisters”, focusing on its stylistic uniqueness and the challenges of preserving meaning in translation. The study examines the author’s distinctive linguistic style, complex syntactic structures, rich symbolism, and use of interior monologue as central elements of analysis. It highlights the importance of maintaining harmony between artistic content, tone, and spirit during the translation process. Through comparative analysis, the article reveals the interplay between the original text and its translations, emphasizing the layers of meaning and stylistic solutions that ensure fidelity and aesthetic balance.

Keywords: James Joyce, Sisters, literary translation, linguistic charm, semantic harmony, style, tone, symbolism, translation issues.

Аннотация: В данной статье рассматривается художественная выразительность языка в рассказе Джеймса Джойса «Сёстры», его стилистическая своеобразность, а также проблемы сохранения смысла при переводе на другие языки. В центре анализа находятся характерный для автора



лингвистический стиль, сложные синтаксические конструкции, насыщенные символизмом выражения и внутренние монологи. Особое внимание уделяется важности сохранения гармонии художественного содержания, интонации и духа произведения в процессе перевода. Сравнительный анализ позволяет выявить соответствие между оригиналом и переводом, показать смысловые слои и стилистические решения, обеспечивающие точность и эстетическую целостность текста.

Ключевые слова: Джеймс Джойс, «Сестры», художественный перевод, лингвистическое очарование, смысловая гармония, стиль, тон, символизм, проблемы перевода.

Kirish:

Badiiy tarjima san'ati — bu shunchaki asarni so'zma-so'z o'g'irish emas, balki ruhini, ohangini va estetik ta'sirini boshqa tilda qaytadan yaratish jarayonidir. Ayniqsa, Jeyms Joys ijodi bo'lmish murakkab va ramziy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan nafaqat chuqur lingvistik bilimlarini, shu bilan bir qatorda leksik so'z boyligi, badiiy sezgi ham talab etiladi. "Sisters" hikoyasi yozuvchining "Dubliners" to'plamidagi ilk asar sifatida o'z davrining ijtimoiy, diniy va ruhiy muhitini o'zida mujassam etadi. J.Joyce o'z uslubida lingvistik murakkablik, ichki monologlar va ramziy tasvirlardan keng foydalanadi. Asarda ruhoniyl shaxs, bolalik xotiralari va axloqiy tushunchalar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar til vositasida yoritilgan bo'lib, tarjima jarayonida bu badiiy qatlamlarni to'liq ifodalash oson emas. Tarjimonning maqsadi — aslyatdagi badiiy jozibani yo'qotmagan holda, uni o'zbek tilida tabiiy, ravon va estetik jihatdan uyg'un tarzda yetkazishdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola Jeyms Joysning "Sisters" asarida til jozibasi va tarjima uyg'unligini tahlil qilish, aslyat va tarjima o'rtasidagi badiiy muvofiqlikni o'rganish hamda lingvistik badiiylikning tarjimada qanday ifodalanishini aniqlashga qaratilgan.

Asarda semantik mazmunning badiiy ifodasi

J.Joys asarida oddiy so'zlar orqali chuqur ma'nolarni ifodalash bilan tanilgan. "The Sisters" hikoyasida "paralysis" ("falajlik") so'zi markaziy semantik ramz sifatida ishlatiladi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi jismoniy holatni anglatadi, biroq muallif uni jamiyatning, ruhoniylkning va inson ruhining "falaj holati" sifatida qo'llaydi. Shu



jihtadan, “paralysis” o’sha davr hayotining ruhiy turg’unligini ifodalovchi asosiy ramzga aylanadi. Shuningdek, “gnomon” va “simoniya” so‘zlari ham semantik jihatdan chuqur ramzli ma’noga ega. “Gnomon” – yo‘qotilgan qismni anglatib, ruhoniyl hayotdagi yetishmovchilikni bildiradi; “simoniya” esa din orqali dunyoviy foyda ko‘rish illatini ifodalaydi. Bu so‘zlarning tanlanishi yozuvchining semantik tafakkuri kengligini ko‘rsatadi.

Jeysms Joys uslubining lingvopoetik xususiyatlari

J.Joyce lingvopoetik mahoratining asosiy belgisi – ichki monolog, ramz va realizm uyg’unligi. Uning badiiy tili tashqi soddaligi ortida chuqur ma’nolarni yashirin holda tasvirlay oladi. Hikoyada bola tasavvuri orqali berilgan ruhiy kechinmalar, ichki nutq va hissiy tafsilotlar o‘quvchini qahramon ichki dunyosiga olib kiradi. Yozuvchi nutqni to‘liq “bola nigohi” orqali bayon etadi: undagi bevosita kuzatishlar, ichki hissiyotlar, so‘zlarning mukammal tanlanishi – bularning barchasi lingvopoetik yaxlitlikni hosil qiladi. Masalan, bola ruhoniylga nisbatan “he smiled strangely” deb ta’rif beradi. Bu ibora beg‘ubor bola nutqidan olinganiga qaramay, “sirli ruhiyl kechinma”ni ifodalovchi lingvopoetik vositadir. Bundan tashqari, Elizaning “When all is said and done, no friends that a body can trust” degan gapi hayotda insonning oxirgi qismati va hayotning qisqacha mazmunini bir ibora orqali tasvirlab bergan. Bu iboradan hayot xulosasi shuki inson ishonadigan chin do’st topilmaydi degan mazmun kelib chiqadi. Bu uslub Joyce realizmining o‘ziga xos belgisidir.

Maqollar va diniyl iboralarning funksional-stilistik roli

Joys asarlarida xalqona iboralar, diniyl satrlar va maqollarga o‘xshash ifodalar muhim stilistik vazifa bajaradi. “May God have mercy on his soul” iborasi ruhoniylga nisbatan aytiladi va bu so‘zlar o‘zida diniyl marhamat, insoniy rahm-shafqat va kechirim tuyg‘usini mujassam etadi. Bu iboraning funksional-stilistik roli shundaki, u matnga diniyl ohang beradi va ruhiyl poklanish g‘oyasini kuchaytiradi. Shuningdek, “He was a very good priest, God rest him” iborasida ham “God rest him” xalq tilida o‘limdan keyingi tinchlik istagini bildiradi. J.Joys bu kabi iboralar orqali Dublin jamiyatining diniyl qarashlarini, axloqiy cheklovlarini va ruhiyl turg’unlikni ramziyl tarzda yoritadi. Asardagi “gone to a better world” jumlasii insonning hayotdan ko‘z yumishini ,vafot



etishini ifodalovchi idioma hisoblanib, o'limni yumshoq tarzda ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

Tarjimada uslubiy ekvivalentlik muammosi

Tarjima jarayonida Jeyms Joys uslubini to'liq saqlash murakkab vazifadir, chunki u har bir so'z orqali chuqur semantik ma'no yaratadi. Masalan, "paralysis" so'zi o'zbek tilida "falajlik" deb tarjima qilinadi, ammo bu faqat jismoniy ma'noni beradi; asardagi ruhiy turg'unlik ma'nosi esa yo'qoladi. Shu sababli tarjimon uslubiy ekvivalentlikni saqlash uchun kontekstual izohlar yoki badiiy muqobillarni tanlashi lozim. Shuningdek, "strange smile" yoki "velvet curtains" kabi iboralar tarjimada ramziy ohangni yo'qotmasligi uchun ularning konnotativ (ko'chma) ma'nolari e'tiborga olinishi kerak. Bunday hollarda tarjima faqat til o'zgarishi emas, balki madaniy va ma'naviy moslashtirish jarayoniga aylanadi.

Xulosa

Jeyms Joysning "The Sisters" hikoyasi o'zining chuqur semantik qatlamlari, lingvopoetik ifodasi va ramziy tasvirlari bilan adabiyotdagi modernistik yo'nalishning yorqin namunasi hisoblanadi. Yozuvchi oddiy so'zlar vositasida inson ruhining murakkab kechinmalarini ochib beradi. Tarjima jarayonida esa bu ramzlar va semantik ma'nolarni to'liq saqlash, uslubiy uyg'unlikni buzmaslik tarjimon oldidagi asosiy vazifadir. Demak, Joyce asarlarida semantika va estetik ohangning uyg'unligi badiiy jozibaning asosiy manbaidir.

References:

1. McMurren B., McMurren B. R. James Joyce and the rhetoric of translation : дис. – University of Oxford, 2002.
2. Lyons J. B. Animadversions on Paralysis as a Symbol in "The Sisters" //James Joyce Quarterly. – 1974. – T. 11. – №. 3. – C. 257-265.
3. Eskandari S. Social and Religion Paralysis in James Joyce's Short Story The Sisters: A Cultural Reading //Budapest International Research and Critics Institute-Journal (BIRCI-Journal) Vol. – 2020. – T. 3. – №. 1. – C. 311-320.
4. de Paula Xavier T. B. A Critical Analysis of a Short-Story Translation: "The Sisters" //Cadernos de Tradução. – 1997. – T. 1. – №. 2. – C. 137-148.
5. Malmkjaer K. et al. Perspectives and reflections in clauses and texts in translation //Scientia Traductionis. – 2014. – №. 15. – C. 178-211.



6. Gillespie M. P. James Joyce and the exilic imagination. – University Press of Florida, 2015.
7. Bock M. James Joyce and Germ Theory: The Skeleton at the Feast //James Joyce Quarterly. – 2007. – T. 45. – №. 1. – C. 23-46.
8. Joyce J. Critical writings. – Courier Dover Publications, 2018.